

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAMATKULOVA O‘G‘ILJON ESHMIRZA QIZI

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RUS TILI BO‘YICHA KASBIY
KOMPETENTLIKNI PLATFORMA YORDAMIDA
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Mamatkulova O‘g‘iljon Eshmirza qizi

Bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini platforma yordamida takomillashtirish..... 3

Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи

Совершенствование профессиональной компетентности будущих учителей по русскому языку с помощью платформы..... 21

Ogiljon Eshmirza kizi Mamatkulova

Enhancing Russian-Language Professional Competence among Prospective Teachers through Platforms..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAMATKULOVA O‘G‘ILJON ESHMIRZA QIZI

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RUS TILI BO‘YICHA KASBIY
KOMPETENTLIKNI PLATFORMA YORDAMIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/V1510 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bakiyeva Gulandom Hisomovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildorxon Urinbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Latipov Oqil Juraqulovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14 aprel" soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.:(71) 230-12-91; faks:(71) 230-12-92; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlati jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12.23 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "11" aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil "11" aprel daqi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

F.G.Zakirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, ped.f.f.d. (Phd)

A.B.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyati ta'lim standartlariga moslashuv hamda ijtimoiy voqelikning globallasuvi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi asosiy muloqot vositasi sifatida chet tillarini o'rganish zaruriyatini yanada oshirmoqda. Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimiga integratsiyalashish va ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy jabhalaridan biri bo'lgan rus tilini o'qitish dunyoning qator mamlakatlari bilan, ayniqsa, mustaqil davlatlar hamdo'stligi hududida xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zarur imkoniyatlar doirasini kengaytiradi. Bunda, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini qo'llagan holda rus tili bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan zaruriy sharoitlar yaratildi. Zero, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozorining ayni vaqtdagi ehtiyojlariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash", shuningdek, "mamlakatimizda ta'lim muassasalarini tashkil etish, rekonstruksiya qilish, zaruriy texnik vositalar va o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash" borasida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan ekanligi ta'kidlab o'tilgan¹.

Shu o'rinda, ta'lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni faol joriy etish asosida bo'lajak o'qituvchilarni rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiluvchi axborot-metodik yordamni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Biroq, Internet tarmog'i orqali ma'lumotlar olish, to'plash va ular ustida ishlash, umumlashtirish juda ko'p vaqt talab qilib, ushbu jarayonda etarli ko'nikmaga ega bo'lmagan bo'lajak o'qituvchilar uchun muayyan qiyinshiliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois, mazkur muammoni hal qilish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan elektron platformalarini yaratish hamda ulardan foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi, PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvar, PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabr,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi PF-5024-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3307879> (Murojaat sanasi: 22.08.2024).

PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-may, PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 27-iyun, PQ-239-sonli “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-may, 124-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 11-avgust, 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-may, 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvar, 34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida, sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi ta’lim sifatiga doir vazifalarni bajarishda muayyan darajada mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shu vaqtga qadar ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, ta’limda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari va pedagoglarning kasbiy kompetentligini har tamonlama shakllantirish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar xorijiy, ayniqsa, bu borada dunyoda ilg‘or mamlakatlar: yaponiyalik T.Sakamoto, avstraliyalik D.A.Pratt, angliyalik L.Colb va A.Bozkurtlar, ta’lim sohasida yuqori texnologiyalarni tadqiq etgan amerikalik tadqiqotchilar orasida X.Stiven, J.Mikletveyt va Massachusetts texnologiya instituti (MIT) va Garvard universiteti jamoalari alohida ajralib turadi, ular raqamli platformalar va o‘rganishda sun‘iy intellektdan samarali foydalanish borasida ishlaganlar. Ularning tadqiqotlari ta’lim muassasalarida IT, moslashuvchan o‘rganish tizimlari va virtual reallikdan foydalanishni qamrab oladi.

Xuddi shunday tadqiqotlar MDH mamlakatlarida: E.F.Zeyer, I.L.Bim, B.S.Gershunskiy, G.S.Suxobskaya, V.D.Shirshov, A.A.Andreyev, N.G. Arzamaseva, A.V.Yershov, V.A.Slastenin, T.G.Vezirov, I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskiy² va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

² Зеер Э.Ф. Решение конструкторских задач на занятиях в школьных мастерских как средство формирования конструкторских знаний и умений: Дисс. ...канд. психолог. наук. – Москва: Московский государственный университет, 1970. – 190 с.; Бим И.Л. Система обучения иностранным языкам в средней школе и учебник как модел ее реализации. – Москва: Издательство Московского государственного педагогического института, 1974. –240 с.; Гершунский Б.С. Методологические проблемы прогнозирования содержания профессионального обучения: Дисс. ...док. пед. наук. – Киев: Киевский национальный университет имени Тараса Шевченко, 1980. – 479 с.; Сухобская Г.С. Использование психолого-педагогических знаний в практической деятельности учителя. – Москва, 1994. – 70 с.; Ширшов В.Д. Педагогическая коммуникация: Теоретические основы: Дисс. ...док. пед. наук. – Екатеринбург: Уральский государственный университет имени А.М.Горького, 1994. – 262

Respublikamiz ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga doir tadqiqotlar S.S.G'ulomov, Sh.S.Axrarov, R.X.Djurayev, N.Azizxo'jayeva, N.I.Taylaqov, U.Sh.Begimkulov, N.A.Muslimov, U.Y.Yuldashev, F.M.Zakirova, A.A.Abduqodirov, A.Pardayev, T.S.Nazarova, M.M.Aripov³ va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida G.Boqiyeva, J.Jalolov, L.T.Axmedova, H.Orziqulov, D.Teshabayeva B.Turdiqulov, T.Xolmatov⁴ kabi mamlakatimiz olimlari chet tillarini o'qitish va ularning ilmiy-nazariy muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar.

Biroq, ilgari bajarilgan tadqiqotlarda mutaxassisligi chet tillari bo'lmagan pedagoglar, bo'lajak o'qituvchilarni rus tilini o'qitish bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, bunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari sifatini oshirish va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bo'lajak o'qituvchilarni bilimini oshirishida foydalanish yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-

s.; Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: Дисс. ...док. пед. наук. – Москва: Московский государственный университет экономики, статистики и информатики, 1999. – 289 с.; Арзамасцева Н.Г. Формирование этнокультурной компетентности будущих социальных педагогов в вузе: Дисс. ...канд. пед. наук. – Москва: Институт социальной педагогики РАО, 2000. – 180 с.; Ершов В.А. Поликультурное образование в системе общеобразовательной подготовки учащихся средней школы: Дисс. ...канд. пед. наук. – Москва: Институт теории и истории педагогики, 2000. – 185 с.; Слостенин В.А. Современные подходы к подготовке учителя // Педагогическое образование и наука. – 2000. – № 1. – С. 44–51; Везиров Т.Г. Теория и практика использования информационных и коммуникационных технологий в педагогическом образовании: Дисс. ...док. пед. наук. – Ставрополь: Ставропольский государственный университет, 2001. – 310 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании: авторская версия. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 40 с.; Хуторской А.В. Практикум по дидактике и современным методикам обучения. – Санкт-Петербург: ПИТЕР, 2004. – 540 с.

³ G'ulomov S.S. Axborot gizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq, 2000. – 592 b.; Axrarov Sh.S. Informatika kursi bo'yicha leksiylar to'plami. – O'sh: Qirg'iz-O'zbek universiteti, 2003. – 160 b.; Djurayev R.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 188 b.; Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.; Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida): Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent: T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 2006. – 331 b.; Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2007. – 305 b.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2007. – 315 b.; Yuldashev U.Yu., Zakirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2007. – 145 b.; Abduqodirov A.A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: amaliy tavsiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 120 b.; Назарова Т.С. Инструментальная дидактика: перспективные средства, среды, технологии обучения. – Москва-Санкт-Петербург: Нестор – История, 2012. – 436 с.; Aripov M.M., Lutfillayev M.X. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 176 b.

⁴ Бакиева Г. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консонантизма): Дисс. ...канд. пед. наук. – Ташкент: Узбекский республиканский педагогический институт Русского языка и литературы, 1987. – 203 с.; Jalolov J.J., Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.; Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Дисс. ...док. пед. наук. – Ташкент: Узбекский государственный университет мировых языков, 2012. – 277 с.

tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishning axborot-metodik platformasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ayni vaqtdagi nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish hamda “kompetentsiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentsiya”, “pedagogik kompetentsiya” tushunchalarini tizimlashtirish va aniqlashtirish, ularni turkumlashtirish va tizimli yondashish nuqtayi nazaridan ilmiy asoslash;

bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikning rivojlanganlik darajasini aniqlash, baholash va monitoring qilishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

bo‘lajak o‘qituvchilarlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi platforma tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va samaradorligini aniqlash;

rus til bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti rus tili bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti rus tili bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tarixiy, biografik, kontent tahlili va modellashtirish (loyihalash), matematik statistika, tizimli tahlil, sotsiometrik (test, muhokama, so‘rov), aloqa va ekspert baholash, pedagogik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari reflektiv jurnal yuritish, amaliy faoliyatga tayyorgarlikni raqamli texnologik kompetentsiyalarga muvofiqligi, faol bilish faoliyatini raqamli platformalar orqali loyihalash va korpus kasbiy komponentlarga mos pedagogik diagnostikalash asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi individual ehtiyojlarga asoslangan madaniyatlararo mazmuni raqamlashtirish, ijtimoiy media-geymifikatsiya vositalari orqali interkultural fasilitatsiya va mentorlik kompetentsiyalarini texnolingvistik integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi sotsiolingvinistik kompetentsiyaning raqamli muhitga moslashuvi B1, B1+ va B2 bilim daraja ko‘rsatkichlarining differinsiallashuviga

olib kelganligi tufayli kasbiy tayyorgarligiga (from low to top) evolyutsion o‘rinishni bosqichma-bosqich ta‘minlash asosida oshirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikning rivojlanganlik darajasini baholash monitoringi bilimlar tizimligini reflektiv baholovchi ichki (ta‘lim jarayonida) va tashqi (yakuniy) o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga aloqadorligi raqamli baholash vositalari orqali optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘qituvchi kasbiy kompetentligi tushunchasining tarkibiy qismlari, xususan, “kompetentsiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentsiya”, “pedagogik kompetentsiya” tushunchalarining pedagogik mazmuni aniqlashtirilgan, uni yanada boyitish uchun zaruriy texnologik shart-sharoitlar yaratilgan;

pedagoglarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda axborot-metodik tizimning o‘rni, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan hamda ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentsiyasini rivojlantirishda platforma resurslari asosida axborot-metodik yordamni amalga oshirish metodikasi takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta‘lim sifati monitoringi natijalarini platforma yordamida aniqlab borish imkoniyati yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonshiligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya, ilmiy anjumanlar materiallari, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola va tezislari, respondentlar bilan o‘tkazilgan savol-javob, suhbatlar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi, tadqiqotda olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda platformaning roli, uning mohiyati va o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, tegshli ilmiy va nazariy metodik asoslarning takomillashtirilishi, rus tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish platformasi va dasturiy tizimi ishlab shiqilganligi, kadrlar tayyorlashning sifat natijalarini aniqlash, baholash va bu borada monitoring yuritishning uslubiy asoslari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati rus tili bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va ixtisoslashuvini rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo‘llarining ilmiy asoslanganligini tahlil qilish orqali o‘quv jarayonini monitoringini yuritish va bu jarayon sifatini baholash orqali oliy o‘quv yurtlarining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlari, o‘quv adabiyotlari, o‘quv kurslarini takomillashtirishda foydalanilish hamda “rus tilini amaliy o‘rganishning jadal metodlari” sifatida zamonaviy yondashuv asosida rus tilini o‘qitish dasturlari mazmunini boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikning platforma yordamida takomillashtirishga doir

tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari reflektiv jurnal yuritish, amaliy ish faoliyatiga tayyorgarligini raqamli-texnologik kompetentsiya talablariga muvofiqligi, faol bilish faoliyatini raqamli platformalar yordamida loyihalash va korpus kasbiy komponentlarga mos pedagogik diagnostikalashga oid takliflardan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvar, 34-sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va ularning bilimini oshirish to'g'risidagi Nizomning 1-ilovasidagi me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va ushbu qaror ijrosini ta'minlashda foydalanilmoqda (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-aprel, 02/02-1120-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur qaror va unda belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini boyitishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini individual ehtiyojlarga asoslangan madaniyatlararo mazmuni raqamlashtirish, sotsialmedia-geymifikatsion vositalar yordamida interkultural fasilitatsiya va mentorlik kompetentsiyalarini texnologiyistik integratsiyalashga oid xulosalaridan ta'lim sifaini oshirishda va o'quv jarayonida tatbiq qilishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-apreldagi 02/02-1120-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida tayyorlangan dastur va materiallarning mazmuni boyitilgan;

bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi sotsiolingvistik kompetentsiyaning raqamli muhitga moslashuvi B1, B1+ va B2 bilim daraja ko'rsatkichlarining differinsiallashuviga olib kelganligi tufayli kasbiy tayyorgarligiga (from low to top) evolyutsion o'sishni bosqichma-bosqich ta'minlashga doir tadqiqot natijalaridan 2020–2022-yillarda Britaniya Kengashi bilan hamkorlik oshirilgan "English as a school subject" 1683580-raqamli xalqaro loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 23-iyun, 04-01/2965-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shu loyiha doirasida ishlab chiqilgan dasturlar hamda tayyorlangan materiallarning mazmuni boyitilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini baholash monitoringi bilimlar tizimligini reflektiv baholovchi ichki (ta'lim jarayonida) va tashqi (yakuniy) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga aloqadorligini raqamli baholash vositalari orqali optimallashtirishga doir takliflardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2014-yil 17-iyuldagi 281-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari mutaxassisligi chet tillar bo'lmaganlarining chet tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish dasturi (minimal talablar)"ni takomillashtirish va ushbu buyruq ijrosini ta'minlashda foydalanilmoqda (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-apreldagi 02/02-1120-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur tadqiqot takliflarining joriy qilinishi oliy ta'lim muassasalari pedagog mutaxassislarining chet tillari bo'yicha bilim va

ko'nikmalarini shakillantirish mexanizmini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta mahalliy respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 1 ta EHM dasturi uchun mualliflik guvohnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasitomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning rus tilidan kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarning rus tilidan kasbiy kompetentligini takomillashtirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning nazariy tahlili amalga oshirilgan.

Jumladan, “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalarini aniqlash masalasi va shunga oid psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ko'plab xorijlik va mamlakatimiz olimlari, jumladan, Y.G.Tatur, A.V.Xutorskiy, I.A.Zimnyaya, V.I.Baydenko, D.Raven, N.Xomskiy, A.Abdullayev, A.Abduqodirov, U.Begimkulov, B.Begalov, R.Djurayev, N.Muslimov N.Avazboyev, G.Boqiyeva, J.Jalolov, L.Axmedova, H.Orziqulov, D.Teshabayeva, N.Muslimov, T.Sattarov, X.Mamatkulov kabilar tomonidan o'rganilgan.

Dastlab kompetentlik borasidagi fikrlar J.Raven Buyuk Britaniyalik mashhur psixolog olim tomonidan ta'kidlangan, unda kompetentlikni 37 xil xususiyatlar to'plamini yagona bir tizimga birlashtirgan holda kompetentliklar ham intellektual, ham emotsional xususiyat kasb etgan holda ular o'zaro almashinuvchanlik xarakterini “motivatsiyalashgan qobiliyatlar” asosida namoyon qilishi ta'kidlanadi.

A.V.Xutorskiy⁵ “kompetentlik” tushunchasini amaliyotga kiritish talabiga nazariy bilimlarni egallash, aniq maqsad, vazifa yoki holatlarni hal qilish, ularni

⁵ Хуторской А.В. Практикум по дидактике и современным методикам обучения. – Санкт-Петербург: ПИТЕР, 2004. – 540 с.

amaliyotga joriy etish kabilarda duch keladigan jiddiy qiyinchiliklarni bartaraf qilishdan iborat va u ushbu vaziyatlarda katta ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi.

L.M.Mitina va V.D.Shadrikov⁶ “kompetentlik” tushunchasini tahlil qilishda uni tarkibiga shaxsiy sifatlar, pedagogik faoliyat maqsadi va vazifalarini belgilash, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, axborot kompetentligi, kasbiy faoliyat ko‘nikmasi va dasturlarini ishlab chiqish va qaror qabul qilishda o‘quv faoliyatini kasbiy talablar asosida tashkil qilish kabi sifatlarni kiritgan holda asoslab, kasbiy kompetentlikni shakllanishiga ma’lum bir ilmiy tadqiqot izlanishlari natijasida hissa qo‘shishdi.

O‘rganishlar natijasida “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik”, “pedagogik kompetentlik” iboralariga chet ellik hamda mahalliy olimlarimiz tomonidan berilgan ta’riflar tizimlashtirildi hamda “kompetentlik” va “kompetensiya” dissertatsiya jarayonida tushunchalari mazmun-mohiyati o‘rganilar ekan, xorijlik va yurtimiz olimlari tomonidan ushbu iboralarning aynan o‘xshash, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iboralar sifatida qo‘llanilishi va bir qator xususiyatlari bilan farqlanishi ta’kidlab kelinganligini aniqlandi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikni takomillashtirish o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, tili o‘rganilayotgan xalq madaniyatini o‘rganish, universitet moddiy-texnika bazasi va ushbu tilda doimiy muloqotda bo‘lib turish shart-sharoitlariga bevosita bog‘liq, shu bilan birga, boshqa yo‘nalishdagi talabalar kasbiy kompetentligini oshirish masalalaridan ajralib turadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilardan o‘z faoliyatlarida mazkur metodlarni qo‘llash asosida ma’lumotlar ustida ishlash, tahlil qilish, ulardan foydalanish bo‘yicha ma’lum bilim, ko‘nikma va malakaga ya’ni, kompetentlikka ega bo‘lishlari lozim. Bundan tashqari, ushbu masalani hal etishda muhim jihatga ega bo‘lgan platformalarning o‘rni beqiyosdir.

Rus tilini o‘zlashtirishda o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va bunda axborot-metodik ta’minot tizimining ahamiyatiga e’tibor qaratgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligi iborasiga mualliflik yondashuvi asosida – “Bo‘lajak o‘qituvchining rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligi – bu uning rus tili sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribaga tayangan holda kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalari, shaxsiy sifatleri, pedagogik faoliyatda maqsad va vazifalarni belgilash, pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqish va qaror qabul qilish, shuningdek, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kabi professional tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan sifatlar majmuasidir” – mazmundagi ta’rif shakllantirildi.


Ko‘rsatib o‘tilgan iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘qituvchilik faoliyatning samaradorligi bosqichlarini o‘rganish barcha kompetentliklar o‘zaro yaqin ma’noga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha izlanishlarga doir ilg‘or xorijiy ilmiy asoslangan ilmiy tavsiyalardan mamlakatimizda foydalanish, chet ellik olimlarning bo‘lajak o‘qituvchilarni bilimlarini oshirish dars mashg‘ulotlariga jalb etilishlari

⁶ Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Москва: Флинта, 1998. – 200 с.; Шадриков В.Д. Дидактика: компетентностный подход. – Часть 2. – Москва: Когито-Центр, 2024. – 116 с.

maqsadga muvofiqligi hamda ularning izlanishlar jarayonida talabalar kasbiy kompetentligi muammolarini hal etishda ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalarini tatbiq qilish va rivojlantirish mexanizmlarini o'zaro muvofiqligini ta'minlash borasidagi ilmiy izlanishlar o'rganildi.

O'rganilgan ilmiy manbalarda pedagogik faoliyat samaradorligida o'qituvchining turli yo'nalishlar bo'yicha kompetentliklari va ularning kasbiy faoliyati o'rtasidagi tizimli bog'liqlik haqida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kompetentliklarning bo'lajak o'qituvchilar faoliyati bilan o'zaro tizimli bog'liqligi⁷

“Bo'lajak o'qituvchilarining rus tili bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirishda axborot-metodogik ta'minlashni amalga oshirish” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida ilmiy tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish faoliyatlarini tashkil etishda platformaning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur jarayonlarni loyihalashtirish vazifalari kengroq bayon qilindi hamda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha platforma tizimi ishlab chiqildi.


Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan talablar O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mutaxassislari va mualliflar tomonidan ishlab chiqilib, faoliyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga vazifalari qo'shib berilgan Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'rganuvchilar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha dasturiy platformasini ishlab chiqish” asos qilindi.

⁷ Muallif ishlanmasi

Platforma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi VMQ-34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligida masofaviy ta‘lim bo‘yicha axborot-metodik ta‘minot platformasi – test.lpa.gov.uz saytini ishga tushdi.

Mazkur platforma bo‘lajak o‘qituvchilarning chet tillar bo‘yicha bilim darajasi “Chet tillarini egallashning umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” (CEFR) tizimining B2 darajasini olishga imkon yaratadi. Platformaning asosiy vazifasi – rus tili bo‘yicha ta‘limning yagona axborot-metodik ta‘minotini yaratish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta‘limini tashkil etishdan iboratdir va bo‘lajak o‘qituvchilarda rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentlikni uzluksiz raavishda oshirishga xizmat qiluvchi tizimdan axborotlarni yaratish, saqlash va uzatish imkoniyatiga ega.

Ayni platforma bo‘lajak o‘qituvchilarning rus tili bo‘yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishga mo‘ljallangan mustaqil ta‘lim jarayonlarini tashkil etishda beshta bosqichdan iboratdir (2-rasm):



2-rasm. Axborot-metodik ta‘minot orqali bo‘lajak o‘qituvchilarga mustaqil ta‘lim berish bosqichlari⁸


Eng muhimi bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil bilim olish mashg‘uloti hisoblanadi, mustaqil ta‘lim – malaka oshirishning muqobil usuli sifatida amalga oshiriladi hamda ta‘lim jarayonida axborot-metodik ta‘minot resurslaridan foydalanib, talabalarining “Rus tilini o‘rganishning intensiv usullari” moduli bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari baholanadi (3-rasm).

Ko‘rsatilgan metodik vositalar platformani qo‘llash orqali rus tilini o‘rganish jarayonlarini yanada osonlashtiradi. Shuningdek, internet tarmog‘i orqali olinadigan axborotlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ta‘lim jarayonida o‘qituvchining pedagogik metodlari yordamidagina ularni qayta ishlashi, hamkorlikda loyihalar yaratishda qatnashishlari, o‘z fikr va tushunchalarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi.

⁸ Muallif ishlanmasi

Rus tilini platformadan foydalanib o‘rganishning turli darajalarida texnologik jarayonlarni uyg‘unlikda amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifalarga asosan turli xildagi modellashtirishlardan foydalanish amalda har tomonlama muhim hisoblanadi. Misol uchun, tadqiqot davomida modellashtirish natijalarini tahlil qilish “guruh bo‘lib ishlash” texnologiyasidan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etishda kutilgan ijobiy natijalarni taqdim etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning platforma vositasida rus tilida muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish maqsadida maxsus guruhga iqtisodiy muammolarning so‘nggi yillardagi dolzarbligi yuzasidan “xalqaro iqtisodiy” muammoni o‘rganish kerakligi ko‘rsatildi.




3-rasm. Rus tili bo‘yicha mustaqil ta‘lim jarayonini tashkil etish shakllari⁹

Bo‘lajak o‘qituvchilar muammo obyekti sifatida mazkur davra suhbatida turli guruh vakillari “Xalqaro iqtisodiy” muammolarning echimi va bu boradagi qarashlarini ifodalashdi. Davra suhbatida jarayonida xalqaro idoralariga o‘rganilgan muammolarning yechimlari aks etgan tavsiyalar yozildi. Bundan tashqari, mazkur vazifalarni inobatga olib, guruh bo‘lib ishlash metodi ta‘lim jarayonida dolzarb va u muloqot yo‘nalishini takomillashtiradi, degan yakuniy xulosaga kelindi (4-rasm).

Platforma foydalanish uchun qulay va oson shaklda ishlab chiqilgan bo‘lib, chet tilini o‘rganishning besh darajasi bo‘yicha ajratilgan. Ya‘ni, eng sodda, boshlang‘ich bosqichdan muayyan murakkab bosqichgacha o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lib, test savollari ham joylashtirilgan. Bu esa o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirib olish imkoniyatini yaratadi.

Savollar 100 ballik reyting tizimi asosida baholanadi. Talaba umumiy 100 balldan kamida 15 ball to‘plagan taqdirda, o‘rganuvchi etarli darajada to‘liq modullarni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi. Shuningdek, ayrim mavzular bo‘yicha taqdim etilgan krossvord topshiriqlari ham mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri bajarish evaziga o‘rganuvchiga qo‘shimcha ballar berilishi ko‘zda tutilgan.

⁹ Muallif ishlanmasi



4-rasm. Platforma tizimining tarkibiy tuzilmasi¹⁰

Mazkur platformaning yana bir afzalligi shundaki, internet tezligi past yoki oflayn sharoitda ham undan foydalanish imkoniyati mavjud. Shu sababli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ham bilimlarini oshirishda ushbu platformadan unumli foydalanishlari mumkin. Masofaviy ta'lim bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi ayni platforma olis hududda yashaydigan o'rganuvchilarning rus tiliga oid kompetentligini oshirish bo'yicha ham muhim axborot metodik ta'minot vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, mazkur tizim o'rganuvchiga kompyuter imkoniyatlarini o'zlashtirish, undan samarali foydalanish orqali pedagog bilan individual ishlash jarayonini muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilar bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish imkonini beradi.

www.lpa.gov.uz saytiga joylashtirilgan boshqa onlayn o'quv metodlari haqida ham ma'lumot berildi. Masalan, saytning onlayn ta'lim bo'limida Speak&Improve platformasida Sandy ismli robot bilan suhbatlashib, rus tili bo'yicha saboq olishingiz mumkin. Shuningdek, Intuto platformasi ham til o'rganuvchilar uchun juda qulay va oson tarzda ishlab chiqilgan. Undagi o'quv kurslari 30 kun davomida, 15-20 daqiqadan vaqt ajratish orqali bosqichma-bosqich o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, videodarslar yordamida yanada tushunarli tilda dars beriladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning rus tili bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarini oshirish bo'yicha eksperimental ish”** deb nomlangan uchinchi bobida platforma resurslari asosida o'quv jarayonini monitoring qilish va ta'lim sifatini baholash natijalari keltirilgan.


